

Ergash Ochilov

1

Gar bir kishidan dilda shikoyat bo'lgay,  
Dil og'rig'i undan benihoyat bo'lgay,  
Hech o'ylama intiqom olishni, chunki  
Yomonga yomonligi kifoyat bo'lgay.

2

Bir lahza tilim tin olmasin shukringdan,  
Bir lahza dilim to'xtamasin fikringdan.  
Har uzvi quloqqa aylana jismimning  
Har qayda so'z ochsalar seshyug zikringdan.

3

Tokaygacha ishqingda, sanam, g'am chekaman?  
Tog'dek bu ulug' g'amni damodam chekaman.  
Dil olguchi gar sensan-u, dil berguchi - men,  
Yuz g'am chekaman ko'yingda, ming g'am chekaman!

4

Zikr yetsa ko'ngilga, u tamom dard bo'lgay,  
Ul zikr tufayli mardlar fard bo'lgay.  
Otashda agarchi xosiyat ko'p, ammo  
Ko'nglingda sening ikki jahon sard bo'lgay.

5

Bir yorki, uning nomidan ishq yog'iladi,  
Har nomayu payg'omidan ishq yog'iladi.  
Kim ko'chasidan o'tsa - u oshiq bo'ladi,  
Go'yo eshigu tomidan ishq yog'iladi.

6

Bu jilvayu nozki, u dilafro'z qilgay,  
Oshiq balodan ne xilda parhez qilgay?  
Gar ta'na yeli etsa qulog'imni batang,  
Ko'nglimdagi ishq otashini tez qilgay.

7

Biz do'stga muborakmiz-u, dushmanga-chi - shum,  
Jang chog'ida temirmiz-u, sulh onida mum.  
G'ijduvon tog'i etagi bizga makon,  
Lek hukmimiz ostida erur hattoki Rum.

8

Ochmay sira og'zingni kula olsang soz!  
Ko'zsiz yana dunyoni ko'ra olsang soz!  
O'ltir-da, safar ayla, oyoq zaxmatisiz -  
Yer kurrasini agar keza olsang soz!

9

Ey bahri ulumga yot, makoni - sohil,  
Bahr ichra farog'at, sohil - dushmani dil.  
Har ikki jahonni(ng) mavjidan mast o'lma,  
Har ikki nafasda qolma bahrdan g'ofil.

10

Umringi, o'tar ekan, muruvvat ayla,  
Qo'lingki, tutar ekan, saxovat ayla.

O'z hosilini o'zi o'rar har kimsa,  
Bas, parvarishi uchun riyoza ayla.

11

Ey pok so'fiy, qilsang agar mayli samo',  
Bil, keltiradi samo' nifoq birla nizo.  
Bas, pok bo'layin desang, samo'ni tark et,  
Yoinki, diling hayotiga ayla vido.

12

Mayl etma samo'ga, qilmagin ham inkor,  
Sen tanla shu yo'lni, bo'lsa ko'ngling bedor.  
Nafsing hali o'lmay, seni qilsa bezor,  
Qil ro'za-namoz, boshqasidan kech zinhor.

13

Darvesh darayu tog' aro manzil tutadi,  
Har lahza bu joydan sheru yo'lbars o'gadi.  
Bor safda ulug' pir-u, sara mardlarimiz,  
Kim bizga g'animdir - uni o'lim kutadi.

14

Bizning safimizga kir-u, mutloq qo'rqma,  
Bo'l ostonamiz ostida tuproq - qo'rqma,  
Qo'zg'olsa sening qasdishta gar jumla jahon,  
Sen izla najot bizdan-u, har choq qo'rqma!

15

Bir yurtki, butun tuprog'i anbarsoro,  
Tong qotg'usi ko'rsa uni Xisrav, Doro.  
Yer yuzini uch marta kezib chiqdim men,  
Bildim: latifu sharif zamin - Buxoro!

Ergash Ochilov tarjimalari

Hazrat Xojai Jahon she'rlari

Hazrati Xojai Jahon Abdulxoliq G'ijduvoniylar she'rlar, inchnin, ruboiy, qit'alar yozganlaridan ko'pchilik bexabar. Darvoqe, buyuk avliyolar, ulug' shayxlarning ko'pi she'rlar ijod qilgani sir emas. Ular she'r vositasida muridlari, shogirdlarini tarbiya qilgan.

Chunki she'r.inson botinini, qalbini o'zgartiradi, inson ruhiyatiga ta'sir qiladi.

Hazrat Ali r.a, Boyazid Bastomiy, Mansur Halloj, Shayx Abusaid Abdulxayr, Bahouddin Naqshband, Xoja Ali ar Rometaniy, Maxdumi A'zam va boshqa pirlar shu bois she'r yozgan.

Xojai Jahon she'rlari ezgulik, poklik, halollikka da'vat. Ushbu pandu nasihatlar XXI asrda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Ushbu pandu nasihatlariga amal etgan zot shak shubhasiz komil inson bo'lajak.

Biz quyida Xojai Jahon asarlarini ham asliyatda, ham tarjimada (tarjimon S.S.Buxoriy) beryapmiz:

1

Gar dar dilat az kase shikoyat boshad,  
Dardi dili tu az o' bag'oyat boshad,  
Zinhor ba intiqom mashg'ul mashav,  
Badro badii xesh kifoyat boshad.  
Gar senga birovdan shikoyat bordur,  
Dardi diling undin bag'oyat bordur,  
Yomonligi o'zi yomonga jazo,  
Intiqom olmoqqa na hojat bordur.

2

Chun meguzarad umr kam ozori beh,  
Chun medihad dast nako'kori beh.  
Chun kishtai xud ba dasti xud medaravi,  
Tuxme ki nako'tar ast agar kori beh.  
Umring o'tadur kam ozorlik beh,  
Qo'ldan keladur nako'korlikbeh.

Har neki ekding shuni o'rgaysen,  
Ekkil sara urug' xushyorlik beh.

3

3-on boda naxurdam, ki xushyor shavam,  
V-on mast nayam, ki boz bedor shavam.  
Yak jomi tajalli jamoli Tu bosham,  
To az adami vujud bezor shavam.  
Ul bodadin ichmadim ki xushyor bo'lsam,  
Mast bo'lmadim ki boz bedor bo'lsam.  
Jamoling tajalliysig'a bo'lsaydim jom,  
Toki bu vujudin tamom bezor bo'lsam.

4

Az xislati bad agar muhazzab boshi,  
Bo xalqi jahon jumla muaddab boshi.  
Bo neku badi jahon ba rahmat mebosh,  
To nazdi Xudo abdi mukarrab boshi.  
Gar bad xislatdan muhazzab bo'lajaksan,  
Jahon xalqi ichra muaddab bo'lajaksan.  
Yaxshi yu yomonga birday raxmat la nazar sol,  
Alloh nazdida abdi muqarrab bo'lajaksan.

5

Bar do'st muborakam, bar dushman shum  
Dar jang chu ohanam, dar sulh chu mum.  
Sarchashmay nur G'ijduvon manzili most,  
Man tig'i duro'ya mezanam to dari Rum.  
Do'stta muborakman, dushmanlarga shum,  
Jangda temirdirman, sulxdamisli mum.  
Sarchashmainur G'ijduvon manzilam,  
Xanjarmanu tig'im kesolgay to Rum.

b

Inkor makun samo'vu maqbul mador,  
Ilo zi kase, ki zindadil boshad yor.  
Gar nafsi tu murda nest az shuhratu oz,  
Bo savmu salot boshu digar biguzor.  
Samo'ni san na qabul, na inkor et,  
Neni aytsam, o'shal ishni zinhor et.  
Agar nafsing o'lmagandur, ogoh bo'l,  
Ro'za, namoz ila o'zni hu shyor et.

7

Ey so'fiy sof, ki kuni mayli samo',  
Hosil zi samo', chun infoq astu nizo'.  
Yo tarki samo' kun, ki sofi gardi,  
Yo on ki hayoti dili xud kun vido'.  
Qay so'fii sof samo'ga moyil bo'lgay,  
Har neki nizo' samo'dan hosil bo'lgay,  
Yo tarki samo' et, ki soflik paydo,  
Yo inki bori umring zoyil bo'lgay.

8

Onho ki ba haq musohibat yoftand,  
Az xesh badu munosibat yoftand,  
Mebosh muroqibeki buzurgoni jahon  
In martaba az muroqibat yoftand.  
Haq suhbatiga kim musharraf bo'ldi,  
Haqning angarahmatiyu sharaf bo'ldi.  
Muroqabada bo'lki buyuk iisoplar,

Muroqabadan azizu ashraf bo'ldi.

9

Ey dil tu ba jonash xon,  
Bekomu zaborash xon.  
K-on Yor na on, yor ast,  
Ki o'ro bo dahonash xon.  
Til sukut et, ey jon gapir,  
Bekomu bezabor gapir.  
Ul Yor ki boshqa yor erur,  
Begapu bedahon gapir.

10

Az shuhrati xesh nafsro dod madeh,  
Xudro ba miyoni mardumon yod madeh.  
Kam nomu nishon boshudigar dermakun,  
Zinhor ki dini xesh barbod madeh.  
Shuhrat ila shum nafsingni shod etma,  
O'zni mardum orasinda ko'p yod etma.  
Kamtarlik et Sen nom chiqaray deb,  
Zinhorki ditingni barbod etma!

11

Eshon, ki agar zi rohi mursalon boshi,  
Dar zohiru botin hamayakson boshi,  
Emin mashav zi makri Shayton zinhor,  
Boyd, ki zi Haq hamisha tarson boshi  
Mursallar yo'lida shoyon bo'lgaysen,  
Botin, zohirda bir xil, ey jon bo'lgaysen.  
Shayton makridin g'ofil bo'lma aslo,  
Haq qahridin doim tarson bo'lgaysen.

12

Sattori hama uyub boyad budan,  
G'amxori hama qulub boyad budan.  
Gar dar talabi rizoyi Xoliq bashi,  
Bo xalq ba xulqi xub boyad budan.  
Ayblarni yopguvchi satgor bo'lgaysen,  
Qalblarni topguvchi g'amxor bo'lgaysen.  
Alloh rizoligin topay desang, ey do'st!  
El birla adabda xushyor bo'lgaysen.

13

Ey dil, biguzar zi shodmoni jahon,  
Paydost chi xezad zy javonii jahon.  
Ro'zeyu shabe biboyad rehat kardan,  
Mag'rur mashav zi zindagonii jahon.  
Ey dil, dunyo shodmonligidin o'tgaysen,  
Mag'rur bo'lma, javonligidin o'tgaysen.  
Tun kuno'tibbirkunfanodurumring,  
Umring bir on, bir onligidin o'tgaysen.

14

Ey tolibi haq ba do'st pardozi mudom,  
Dar rohi safo ilm barafro'z mudom.  
Xohiki zi ashobi shuurat xonand,  
Taqdiri Xudo shuuri xud soz mudom.  
Tolibi haq do'stga o'zni oshno ayla,  
Ilm birla mudom qalbkngni barno ayla.  
Shuuri borlar safidan joy olmoq bo'lsang,  
Haq taqdirini shuuringga jo ayla.

15 This is not registered version of TotalDocConverter

Az qahri Xudo xaloskori pesh or.  
Az rahmati o' umidvori pesh or.  
Payvasta miyoni xavf meboshu rajo,  
3-in har du tariq haq guzori pesh or.  
Tangri qahridin qo'rq qil zinhor,  
Rahmatidin umid uzmagil, ey yor.  
Xavfu rajo orasida yashagil,  
Shu yo'l ila bo'lajaksen xaloskor.

16

Chonam az viridi Tu chunin buvad dush,  
Munisam to ro'z parvin buvad do'sh.  
Nolai man to ba vaqti subhidam,  
"Yo g'iyosal mustag'sin", buvaddo'sh.  
Jonim virdingdin chunin bo'lgaydur,  
Munisim tonggacha parvin bo'lgaydur.  
Ohu nolam to subhidamgacha:  
"Yo g'iyosal mustag'sin!" bo'lgaydur.

17

In gavhari ishq xud zi koni zikr ast,  
Manzilgohi oshiqoni jahoni zikr ast.  
V-on murg'e ki donaye zi domi tu xo'rd,  
Berun zi du kavn dar jahoni zikr ast.  
Ishqu muhabbat gavhari zikr konidandur,  
Oshiqqlar manzili bari zikr konidandur.  
Ul qushki domingdan oddi yu dona, bo'ldi  
Ikki olam sarvari zikrkonidandur.

18

Pokizahisol boshi andar hamahol,  
Ki zi xislati pokiza ki shud ahli kamol.  
Behtar zi rozigii haq chi yobad banda?  
Rozi ast Xudo az mardi pokiza hisol.  
Pokiza axloq bo'l har vakt, hama hol,  
Pokizaxislatizot ahlikamol.  
Haqning rizosidin ne bor ortiqroq?  
Haq rozidir bo'lsang pokiza xisol.

19

Bo badon manishin, ki suhbat bad  
Garchi poki turo palid kunad.  
Oftobro badin buzurgiyash,  
Zarraye abr nopadid kunad.  
Yomon bilai suhbat etma hech,  
Alar noming bulg'ab ketolgay.  
Qara, ulkan kuyosh nurini  
Parcha bulut xira etolgay.

Sadriddin Salim Buxoriy tarjimalari